

**SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKTUALDAN FOYDALANISH****Yo'ldoshaliyeva Dilrabo Xasanboy qizi***NamDU yuridik fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz inson aqli singari fikrlay oladigan sun'iy intellekt ya'ni ChatGPTning afzalliklari va uning sud tizimi va adliya sohasida qo'llash qanchalik to'g'riligi haqida fikr yuritimiz. Shuningdek, sun'iy intellekt demokratik davlatlar qonunchiligida belgilangan insonparvarlik, inson qadri kabi prinsiplarni tahlil qila oladimi?*

Kalit so'zlar: *ChatGTP, sun'iy intellekt, OpenAI, sud tizimi, adliya tizimi, dasturlash tizimi, texnologiya, dalillar, axborot olish, Mashable'dan Mayk, Jeffri Vos, insonparvarlik.*

Abstract: *In this article, we will discuss the advantages of ChatGPT, an artificial intelligence that can think like a human mind, and how appropriate it is to be used in the judicial system and the field of justice. Also, can artificial intelligence analyze principles such as humanity and human dignity defined in the legislation of democratic countries?*

Keywords: *ChatGTP, artificial intelligence, OpenAI, court system, justice system, programming system, technology, evidence, information retrieval, Mike from Mashable, Jeffrey Vos, humanitarian.*

Аннотация: *В этой статье мы обсудим преимущества ChatGPT, искусственного интеллекта, который может думать как человеческий разум, и насколько целесообразно его использовать в судебной системе и сфере правосудия. Кроме того, может ли искусственный интеллект анализировать такие принципы, как гуманность и человеческое достоинство, определенные в законодательстве демократических стран?*

Ключевые слова: *ChatGTP, искусственный интеллект, OpenAI, судебная система, система правосудия, система программирования, технология, доказательства, поиск информации, Майк из Mashable, Джефффри Вос, гуманитарный.*

Kirish: Avvalo, biz sun'iy intellekt haqida tushunchaga ega bo'lsak. ChatGPT aslida nima?

Sun'iy intellekt (SI; inglizcha: *artificial intelligence, AI*) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi.

Bugungi kunda keng qo'llanilib kelinayotgan sun'iy intellekt texnologiyalariga aqli veb-qidiruv tizimlari (masalan, Google Search), tavsiya tizimlari (YouTube, Amazon va Netflix), tabiiy tilni tushunish (Google Assistant, Siri va Alexa), o'zini-o'zi boshqaradigan vtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni misol qilish mumkin.

Alan Turing sun'iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo'lgan. Sun'iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning



yo'zida Dartmouth kollejida o'tgan anjumanda John McCarthy „sun'iy intellekt“ atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi o'laroq kirgan. Sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlar XX asr o'rtalaridan beri qilinib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda chuqur o'rganuv boshqa sun'iy intellekt metodlaridan ustunligini namoyon etganda hamda 2017-yilda transformer arxitekturasida erishilgan yutuqlar ortidan keskin ortgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha gurkirab rivojlanib, ko'plab shirkatlar, universitetlar va laboratoriyalar sun'iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishib kelishmoqda.

Su jumladan, ChatGPT (Chat generative pre-trained transformer) OpenAI tomonidan yaratilgan sun'iy intellect chat boti hisoblanib, savollarga javob bera oladi, talabalarga kurs ishlarini yozib bera oladi, dasturlash uchun kod yozishga yordam beradi, hattoki, matn yoki she'rlarni ham inson aqli singari yozib berishga qodir bot. Umumiy qilib olganda ChatGPT inson miyyasi kabi savollarga javob beradi.

Buyuk Britaniya hukumati sudyalarga ChatGPT sun'iy intellektdan foydalanishga ruhsat bergan. Bundan ko'zlangan maqsad yanada takomillashgan tez va samarali raqamli adliya tizimini shakllantirishdir. Bu botni insonlar hattoki, sudyalalar va advokatlik firmalari ham iliq kutib olishdi. Buyuk Britaniya katta sudyasi Lord Adliya Briss ChatGPT-ni „juda foydali“ deb e'tirof etdi va botdan huquq sohasini umumlashtirish va sud qarorini nusxalash va joylashtirish uchun foydalanganini aytib o'tgan. Yana bir mutaxassis Uels va Angliyadagi fuqarolik adliya reyestrining yetakchisi Jeffri Vos shunday fikr bildirgan „Texnologiya faqat oldinga intiladi va sud tizimi undan foydalanishni tushunishi kerak. Ammo, sudyalalar ChatGPT nafaqat to'g'ri balki, noaniq javoblarni ham berishi mumkinligini aniq bilishlari kerak“. The New York Times „ommaga taqdim etilgan eng yaxshi sun'iy intellect chatboti“ deb ta'rifladi. Texnologiya yozuvchisi Dan Gilmore talaba topshirig'ini bajarishda foydalangan va u yaratgan matn yaxshi talaba taqdim eta oladigan natija ekanligini aytgan. Ammo, mutaxassislar ChatGPTdan foydalanishda e'tiborli bo'lish kerakligi haqida ogohlantirgan. ChatGPT haqoratimiz natijalar taqdim etilishi va ishlab chiqarilishining oldini olish uchun so'rovlar OpenAI kompaniyasining moderator APIsi orqali filtrlanadi va irqchilik yoki jinsiy aloqa bo'lishi mumkin bo'lgan takliflar rad etiladi. Chunki har qanday texnologiyada tabiat insonga bergan qalb, ko'ngil, insoniy ma'naviyat, qadriyat, andisha kabi bebaho va anglangan ne'matlar bo'maydi

ChatGPTning foydali tomonlari bilan bir qatorda salbiy taraflari ham mavjud. Masalan: bot so'rovlar va berilgan javoblarni saqlaydi bu esa daxlsizlik masalasiga zarar yetkazishi mumkin.

ChatGPT orqali ixtiro qilingan xayoliy ishlarni o'z ichiga olgan sud arizalari yozilganda AQSH advokatlari ba'zi bir qiyinchiliklarga uchrashgan. Bot orqali soxta dalillar yaratilish texnologiyasidan foydalanishi mumkin. Ser Jeffrining ta'kidlashicha, agar chat bot tomonidan yozilgan arizalar noto'g'ri dalillar keltirsa, advokatlar yolg'on guvohlik berishlari va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. U „Hech narsa



o'zgarmaydi, chunki ular yolg'on gapirganlarini o'z aqlari bilan emas, balki, chat botidan olgan bo'lishi mumkin", dedi.

Huquqiy yo'riqnomalarda aytilishicha "ommaviy sun'iy intellekt chat botlari ishonchli tahlil yoki mulohazalarni keltirib chiqarmaydi va sud idoralari egalari o'z nomidan ishlab chiqarilgan materiallar uchun shaxsan javobgardirlar".

Sudyalarga shaxsiy ma'lumotlarni chat botga joylamaslik, ular jamoat mulki bo'lishi mumkinligi haqida ham ogohlantirilgan.

Mashable'dan Mayk ChatGPTga ba'zi savollar berganda bot xato javob bergan. Masalan, "umumiy nomi uning jinsi va turlari bilan bir xil bo'lgan hayvon turi bormi?" - degan savol berilganida ChatGPT shunday javob qaytargan " hayvonlarning kamida bitta turi bor, umumiy nomi uning jinsi va turlari bilan bir xil. Ko'rib chiqilayotgan hayvon shimpanze bo'lib, u o'zining ilmiy nomi Pan taksonomik hayvon nomi bilan ham tanilgan". Afsuski, shimpanzening "Gorilla" va "Boa constrictor" degan nomlari ham mashhur.

Men o'zim ham tajriba o'tkazishni maqsad qildim. Kompyuter texnologiyasida bog'landim, bot orqali savollarimga javob olmoqchi bo'lib, unga savollar berdim.

- "Biz kir qo'limizni sovun bilan yuvib, sochiqqa artamiz. Agar toza qo'limizni sochiqqa artsak sochiq nega kir bo'ladi?".

Bot shunday javob berdi, - "qo'llaringizni sochiq bilan artganingizda u toza bo'lsa ham, teringizdagi ba'zi qoldiqlar, yog'lar yoki bakteriyalar bo'lishi mumkin va sochiqning o'zi ham vaqt o'tishi bilan mikroblar, bakteriyalar to'playdi, ayniqsa ular muntazam yuvilmasa. Shunday qilib, sizning qo'llaringiz toza bo'lgandek tuyulishi mumkin bo'lsa-da, sochiq hali ham zarralar yoki mikroblarni olib, uni iflos qilib ko'rsatishi mumkin".

- Ikkinchi savolim "agar sun'iy intellekt siyosiy qarorlar qabul qilishga yordam bersa, u insonparvarlik tamoyiliga amal qiladimi?".

Javob esa quyidagicha: - "sun'iy intellekt (AI) qanday ishlab chiqilgan, dasturlashtirilgan va tartibga solinganiga bog'liq. Insonparvarlik printsiplari ko'pincha empatiya, axloq, adolat va inson huquqlarini o'z ichiga oladi, bu ideal ravishda AI tizimlariga kiritilishi kerak. Biroq, AI ushbu tamoyillarga qay darajada amal qilishi, natijada uni yaratuvchilarning qadriyatlarini va niyatlariga va undan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalariga bog'liq".

ChatGPT axborot olishni tez va osonlashtiradi. Ammo, sun'iy intellekt botda ham ba'zi kamchiliklar bor va buni anglagan holda undan foydalanish mumkin. Har doim olgan ma'lumotingiz qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirib olishga harakat qiling.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xozirgi informatsiyon texnologiyalar davrida dasturlashtirilgan texnologiyalar berilgan topshiriqlarga dastur doidasida aniqlashgan javoblar berishini bilimli, ziyolilar to'g'ri tushunadi, zamon bilan hamnafas yurmoqchi bo'lsak, sun'iy intellektni o'rganishimiz kerak. O'zi shundoq ham kech qolyapmiz, har kuni yangilik bo'lyapti bu sohada. O'rganmasdan iloj yo'q, o'rganish kerak..



Bu borada tajribaga ega mutaxassislar barcha sohalarda rivojlanish bo'lishi uchun yanada texnologiyalarni yuksak darajada takomillashtirishmoqda.

Jumladan, huquqiy sohaga ham sun'iy intellekt dastur doirasida aniqlashtirilgan javoblarini, belgilangan normalar asosida javoblar masala bo'yicha yechimlar berishini sud protsessi yutug'i safatida qabul qilish o'rinli.

Bu borada ko'plab tajribalar olib borilayotgani bizni qiziqtaradi. Sud'ya inson sifatida, yuzxotir qilish, andisha qilish orqali qaysidir masalada ta'sirlanishi mumkin, sun'iy intellekt esa bu borada aniq hulosa aytadi. Mulkiy va ma'naviy zarar undirishda aniq xisob -kitoblarni belgilashi, dasturda belgilangan tarzda jazo chorasi bo'yicha qaror bildirishi ham mumkindir. Faqat insoniyat qalbi bilan o'lchanadigan kategoriyalarga sun'iy intellekt javob berishi qiyin masala bo'lishi mumkin.

Sun'iy (kompyuter) aql - bu informatika va kompyuter muhandisligining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri. Sun'iy intellekt sohasidagi ish an'anaviy intellektual muammolarni hal qilish uchun kompyuter tizimlarini (o'qitish, ekspert, konsalting, robot va boshqalar) loyihalash uchun usullar, vositalar va texnologiyalarni yaratishga qaratilgan.

Aniqlangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishtirok etadigan oddiy dasturchilardan farqli o'laroq, sun'iy intellekt mutaxassislari ushbu xususiyatlarni shakllantirishga qodir, bu har qanday dasturiy mahsulotni loyihalashda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Barcha taraqqiy etadigan texnologiyalar insoniyat farovonligi uchun xizmat qilish kerak.

Inson huquqlariga salbiy ta'ir ko'rsatuvchi robototehnologiya va turli texnologiyalar xalqaro miqyosda huquqiy normalar bilan ta'qiqlanishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "New and Improved Content Moderation tooling" OpenAI (2022-yil 10-avgust)
2. The New York Times
3. *Roose, Kevin*, "The Brilliance and Weirdness of ChatGPT". *The New York Times* (2022-yil 5-dekabr)
4. *Krugman*. „Does ChatGPT Mean Robots Are Coming For the Skilled Jobs? The New York Times
5. *Pearl*. „The ChatGPT chatbot from OpenAI is amazing, creative, and totally wrong“ (2022-yil 3-dekabr)
6. The telegraph
7. ChatGPT bot
8. <https://uz.wikipedia>. Suniy_intellekt



9. Quvonchbekovna, O. S. The importance of "Kazilik adabi" in Abu Bakr Kasani's work "Badoi-us-sanoe". *International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA*, (01).

10. Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ҲУҚУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In *TURKEY International scientific-online conference: "THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH* (No. 1 Part 5).

11. Чубоева О. О'ЗБЕКISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022-PART, 10*.

12. Чубоева, О. Янги Ўзбекистон-III ренесансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022

13. Ozodakhon, S. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 123-125

14. Quvonchbekovna, O. S. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOG*, 7(2), 194-198.